

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY TARAQQIYOTDAGI ROLIDA AKTSIYADORLIK JAMIYATLARINING DIVIDEND SIYOSATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Malikova Ug‘iloy Abdurasul qizi⁸⁶

Ma’lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etilish orqali foydani maksimallashtirish ijroiya organ va korporativ boshqaruv sub’ektlarining asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib foyda miqdori hamda uning dividend sifatida taqsimlanish darajasi hisoblanadi. Bugungi kunda aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurclar, ya’ni investitsiyalar jalb qilishda mazkur ko‘rsatkichlarning holati qay darajada ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek – “Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.⁸⁷

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha korxonalarda ham dividend siyosati yaxshi holatda amalga oshirilyapti deb bo‘lmaydi. Chunki, dividend siyosatining samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida fond birjalar rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatishi kerak. Shu sababdan ham bugungi kunda mamlakatimiz aktsiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash mexanizmi va dividend siyosatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aktsiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash masalasi korporativ boshqaruv oldidagi jiddiy masalalardan biridir. Chunki har bir aktsiyador kiritgan ulushidan kelib chiqqan holda foydaning tegishli qismini olishga intiladi. Boshqa tomondan aktsiyadorlik jamiyatining hisobot davrini foyda bilan yakunlashini ta’minlagan boshqaruvchilar ham foydaning ma’lum bir qismini mukofot tarzida olishni xohlaydi. Shuningdek aktsiyadorlar oldida aktsiyadorlik jamiyati faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida erishilgan foydani reinvestitsiyalash masalasi ham turadi. Foydani taqsimlashda yuqorida keltirilayotgan har bir jihat inobatga olinishi shart. Aks holda tomonlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi, natijada esa korporativ nizolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari foydaning aktsiyadorlar o‘rtasida taqsimlanishida faoliyatni kengaytirish maqsadida qo‘shimcha resurslar jalb qilish imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim.

Aktsiyadorlik jamiyatlari tomonidan dividend to‘lovlarining muntazam ravishda amalga oshirilmasligi yoki past darajada amalga oshirilishi aktsiyadorlarning noroziligiga olib kelishi, bu o‘z navbatida aktsiyalarning boshqa

⁸⁶ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi. E-mail: ogiloymalikova9@gmail.com

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi 60-son farmoni

shaxslarga, xususan “dushman” kompaniyalar aktsiyadorlariga sotilishiga sabab bo‘ladi. Natijada esa nazorat paketining qo‘ldan chiqishi oqibatida aktsiyadorlik jamiyati boshqa kompaniya, xususan xorijiy kompaniyalar tomonidan qo‘shib olinishi yuz beradi. Aynan qo‘shib olinishdan himoyalaniish maqsadida Aktsiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatidan foydalanishlari mumkin. Ya’ni bozor daromadlilikidan kelib chiqqan holda aktsiyadorni dividend ko‘rinishidagi daromad bilan ta’minlash o‘z-o‘zidan qo‘shib olishlardan himoya vazifasini o‘taydi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda aktsiyadorlarga dividend to‘lashning tartibi, shakllari va o‘ziga xos jihatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda mazkur jarayonni tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan amalga oshiriladi va unga asosan aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalarning har bir turi bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart.

Xorijiy mamlakatlarda dividendlarni to‘lash aniq sanalar bo‘yicha quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Bunda dividendlarni e‘lon qilish vaqti aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori asosida direktorlar kengashi tomonidan dividend summasi va to‘lash muddatlari belgilanish vaqtini o‘zida aks ettiradi. Eks-dividend yoki reestr yopilish sanasi qaysi sanadagi reestr bo‘yicha dividend to‘lanishini anglatadi va bu sanada odatda, aktsiyalar kursi e‘lon qilingan dividend miqdoriga kamayadi. Registratsiyadan o‘tish sanasiga qadar aktsiyadorlar ro‘yxatdan o‘tishi lozim bo‘ladi va dividendlarni to‘lash sanasida esa registratsiyadan o‘tgan aktsiyadorlarga dividend cheklari yuboriladi. Korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan dividend siyosatiga investitsion faoliyat bilan bog‘liq, muqobil manbalardan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini tavsiflovchi, ob’ektiv cheklovlar bilan bog‘liq omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Dividend siyosatiga ta’sir etuvchi omillar va ularning tarkibiy qismlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval⁸⁸

Dividend siyosatiga ta’sir etuvchi omillar

Omillar guruhi	Guruh tarkibi
Korxonaning investitsion imkoniyatlarini tavsiflovchi omillar	- korxonaning hayotiy tsikli bosqichlari; - kompaniyaning o‘z investitsion dasturlarini kengaytirish zaruriyati; - yuqori darajada samaradorlikka ega alohida investitsion dasturlarga tayyorgarlik bosqichi.

⁸⁸ Elmirzaev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / -T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.

Muqobil manbalardan moliyaviy resurslarni shakllantirish (jalb qilish) imkoniyatlarini tavsiflovchi omillar	-oldingi davrlarda shakllantirilgan xususiy kapital zaxirasining etarliligi; - qo‘shimcha aktsiyadorlik kapitalini jalb qilish uchun talab qilinadigan xarajatlar; - qo‘shimcha qarz kapitalini jalb qilish uchun talab qilinadigan xarajatlar; - moliya bozoridan kredit jalb qilish imkoniyati; - korxonaning joriy moliyaviy holati bilan belgilanadigan kreditga layoqatlilik darajasi;
Ob‘ektiv cheklovlar bilan bog‘liq omillar	- soliqqa tortish darajasi; - korxona mol-mulkini soliqqa tortish darajasi; - foydalanilgan xususiy va qarz kapitali o‘rtasidagi nisbatga bog‘liq holda erishilgan moliyaviy leveredj samarasi; -haqiqatda olingan foyda miqdori va xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti.
Boshqa omillar	- korxona ishtirok etadigan tovar bozori holati sikli; - raqobatchi kompaniyalar dividend to‘lovlari darajasi; - olingan kreditlar bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas to‘lovlar; -kompaniya boshqaruvi ustidan nazoratni yo‘qotish mumkinligi

Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aktsiyadorlik jamiyatlari moliyasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi shakllanishida, uy xo‘jaliklarining doimiy daromad manbasiga ega bo‘lishlarida, tashqi savdo munosabatlarida, moliya-kredit muassasalarining barqaror ishlashida o‘ziga xos vositachi vazifasini o‘taydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligini oshirishga, ularning investitsion jozibadorligini ta’minlashga hukumat darajasida jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, xususiylashtirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investorlarni va xorijiy menejerlarni aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga keng jalb qilish kabi masalalarga dolzarb masalalardan biri sifatida yondashilayotgan bir vaqtda

aktsiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini yanada samarali tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

G‘arb moliyachilarining fikricha, qat’iy ishlaydigan korporatsiyalarda dividend to‘lovlari ulushi erishilgan sof foydaning 30-40%dan yuqori bo‘lmasligi, sof foydaning qolgan qismi esa (60-70%) rivojlanish maqsadlariga sarflanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, dividend to‘lovlari va aktsiya kursi hamda o‘z navbatida aktsiyadorlik jamiyatlarining kapitalizatsiya hajmi o‘rtasidagi kuchli va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi, kutilayotgan dividendlarning o‘sish sur‘atining ortishi bilan ulushlar narxini oshishi va shunga mos ravishda qisqa muddatda aktsiyadorlar farovonligi darajasining oshishi bilan izohlanadi. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tahlillar, prognoz natijalari orqali investorlar ma’lum bir aktsiyadorlik jamiyatining aktsiyalarini tanlashi mumkin bo‘lsa, aktsiyadorlik jamiyatlari esa ular tomonidan olib borilayotgan dividend siyosatini aktsiyalar kursiga qay darajada ta’sir etayotganligini baholashlariga zamin yaratilishi bilan birga, aktsiyadorlik jamiyatining kapitalizatsiya hajmini oshirishga doir tadbirlarni amalga oshirishga imkon yaratiladi deb hisoblaymiz. Bu esa bizningcha, o‘z navbatida mamlakatimizda keng amalga oshirilishi ko‘zlanayotgan xususiylashtirish amaliyotlarini samarali amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, optimal darajada tashkil etilgan dividend siyosati nafaqat aktsiyadorlarning moddiy farovonligini oshirishi, balki aktsiyadorlik jamiyatining ham investitsion jozibadorligini oshirishi mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. (Qonun. O‘RQ-370-son) O‘zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi 2014-yil 6maydagi 370 son qonuni
2. (Qonun, O‘RQ-387-son) O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi o‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi 2015-yil 3-iyundagi qonuni
3. (Farmon, PF-60-son) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 28.01.2022 yildagi 60-son farmoni
4. Elmirzaev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / -T.: “Iqtisodmoliya”, 2019. – 416 b.
5. Elmirzaev S. Dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. № 2, oktyabr, 2016 yil